



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 23-iyul, № 149 (9320)

Payshanba

Saytimgiza o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



YANGI O'ZBEKISTON KELAJAGI UCHUN MUSTAHKAM POYDEVOR BO'LAYOTGAN SHIDDATLI ISLOHOTLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22 iyul kuni Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumani va Nurafshon shahriga tashrif buyurib, transport va ijtimoiy infratuzilma, raqamli texnologiyalar, sanoat hamda shaharsozlik sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi, yirik qurilish loyihalariga start berdi.



Davlatimiz rahbari dastlab O'rta Chirchiq tumanida Toshkent – Samarqand yo'nalishidagi pullik muqobil avtomobil yo'li qurilishiga tamal toshi qo'ydi.

Mamlakatimiz yetakchisi ushbu loyiha Yangi O'zbekistonning iqtisodiy qudrati va transport-logistika salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

– Bugun bu sohada tom ma'noda yangi davr boshlanmoqda, desak, to'g'ri bo'ladi. Xalqimiz uchun taraqqiyot va farovonlik timsoli bo'lib xizmat qiladigan ushbu yirik loyihaning boshlanishi barchamizga muborak bo'lsin, – dedi Prezident.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyoti 3 karra o'sdi. 2030 yilga borib uning hajmini 240 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bu esa yo'l-transport va

logistika infratuzilmasini iqtisodiyotning o'sish sur'atlariga muvofiq rivojlantirishni talab etadi.

Bugun O'zbekiston hududidan xalqaro ahamiyatga ega 4 ming kilometr tranzit yo'l o'tadi. Ularning 30 foizi to'liq quvvatda, yana 25 foizi ortiqcha yuklama bilan ishlamoqda.

“Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston va Transafg'on temir yo'llari ishga tushgach, mamlakatimiz Tinch okeanidan Yevropagacha bo'lgan eng qisqa quuruqlik yo'lagining asosiy bo'g'iniga aylanadi. Pokiston portlari orqali Hind okeani va Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish uchun ham yangi imkoniyatlar ochiladi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga qo'shimcha 15 – 20 million tonna tranzit yukini qabul qilish 400 – 600 million dollar daromad, logistika markazlari va terminallar uchun 3 milliard dollar

investitsiya hamda 50 mingta barqaror ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Shu maqsadda 2030 yilga qadar Andijon bilan Qo'ng'irotni, Termiz bilan Toshkentni bog'lovchi 4 ming kilometr xalqaro yo'llarni yuqori talablarga javob beradigan zamonaviy tranzit yo'laklarga aylantirish rejalashtirilgan. Toshkent – Samarqand yangi avtomobil yo'li ushbu strategik dasturning muhim qismi bo'ladi.

So'nggi 10 yilda 78 trillion so'm hisobidan 128 ming kilometr yo'lda qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Endi mamlakatimizda ilk bor eng yuqori toifadagi zamonaviy avtomagistral barpo etilmoqda.

Qiymati qariyb 2,2 milliard dollar bo'lgan olti polosali yo'lining umumiy uzunligi 282 kilometrni tashkil etadi. U Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi aholisi 2

milliondan ziyod bo'lgan 13 ta tuman orqali o'tib, hududlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Loyiha doirasida 92 ta ko'prikl, 28 ta yo'lo'kazgich, 60 ta tunnel tipidagi o'tish joyi, shuningdek, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun yer osti yo'laklari va suv o'tkazish inshootlari quriladi.

Yo'l qoplamasi og'ir va yuqori tezlikda harakatlanadigan transport vositalari qatnoviga chidamli monolit betondan barpo etiladi. Tekis hududlarda harakat tezligi soatiga 150 kilometrgacha bo'lishi ko'zda tutilgan.

Zamonaviy xavfsizlik yechimlari, raqamli va innovatsion qulayliklar yo'l-transport hodisalarini keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

– Ushbu loyiha ishga tushganidan so'ng uning afzalligini har bir yurtdoshimiz o'z hayotida, albatta, his qiladi. Toshkentdan Samarqandga yetib borish vaqti hozirgi 5 soatdan 2,5 soatga qisqaradi, – dedi davlatimiz rahbari.

Yangi avtomagistral sutkasiga 60 mingdan 80 mingtagacha transport vositasini o'tkazish imkoniga ega bo'ladi. Tirbandliksiz va bir maromda harakatlanish energiya sarfi, amortizatsiya va texnik xarajatlarni kamaytiradi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, yuk tashish tannarxi 19 – 24 foizga pasayadi. Bu, ayniqsa, tez buziladigan meva-sabzavot, go'sht, sut va boshqa mahsulotlarni bozorlarga qisqa muddatda va sifatli yetkazish imkoniyatini kengaytiradi.

Yangi yo'l Farg'ona vodiysi va mamlakatimizning markaziy hududlarini janubiy hamda g'arbiy viloyatlar bilan bog'lashda muhim o'rinni tutadi. Shuningdek, xalqaro transport yo'laklari samaradorligini oshirib, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi transport-logistika markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

Jahon banki tahlillariga ko'ra, bunday infratuzilma loyihalariga kiritilgan har bir dollar iqtisodiyotga 5 barobargacha samara keltiradi. Yangi yo'l Toshkent shahri, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlari yalpi hududiy mahsulotining 3 foiz o'sishiga turtki berishi kutilmoqda.

Yo'l bo'yida logistika markazlari, omborlar, sanoat va agrosanoat

korxonalari, savdo-servis, mehmonxona va turizm obyektlari barpo etiladi. Bu yangi ish o'rinlari, xizmatlar bozori va mahalliy byudjetlar uchun qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi.

Qurilish jarayonida mahalliy xizmatlar va qurilish materiallaridan keng foydalaniladi. Bu mahalliy korxonalar uchun yirik buyurtmalar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va qo'shimcha ish o'rinlari, deganidir.

To'rtta hudud rahbarlariga “Yagona koridor – yagona standart” tamoyili asosida yer uchastkalarini ajratish, logistika, muhandislik va kommunikatsiya infratuzilmasini birgalikda rejalashtirish vazifasi qo'yildi.

Avtomagistral Yevropa, Turkiya, Xitoy va boshqa davlatlarning ilg'or tajribalari asosida loyihalashtirilgan. Birinchi bosqichda yo'l xitoylik hamkorlar bilan EPC modeli asosida barpo etiladi, keyinchalik uni boshqarish, saqlash va ekspluatatsiya qilishning zamonaviy mexanizmlari joriy etiladi.

Loyiha xalqaro sifat, xavfsizlik va ekologik standartlar asosida amalga oshirilib, 2030 yilda foydalanishga topshiriladi.

Davlatimiz rahbari mazkur loyiha mamlakatdagi yirik yo'l qurilishi dasturining bir qismi ekanini ta'kidladi. Xiva – Urganch yo'li qurilishi davom etmoqda, Toshkent – Andijon yo'nalishi bo'yicha xalqaro tender yakunlanish arafasida, Toshkentni Bo'stonliq bilan bog'lovchi yo'l uchun xususiy sherikni aniqlash ishlari olib borilmoqda.

– Biz bugun Vatanimiz mustaqilligining 35 yillik to'yi arafasida mamlakatimiz kelajagi, iqtisodiy barqarorligi va xalqimiz farovonligi uchun yana bir mustahkam poydevor qo'ymoqdami, – dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari xitoylik hamkorlar, mahalliy va xorijiy mutaxassislar, muhandislar, loyihachilar va quruvchilarga muvaffaqiyat tilab, O'zbekiston tarixida ilk bor “yashil” va innovatsion yo'l barpo etilayotganini alohida ta'kidladi. Shundan so'ng Prezident Shavkat

Mirziyoyev Toshkent – Samarqand yangi avtomobil yo'li poydevoriga kapsula qo'yib, uning qurilishini boshlab berdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyatiga tashrfi davomida “A-373” va Toshkent katta halqa yo'llari kesishmasida barpo etilgan yangi yo'lo'kazgichni ko'zdan kechirdi.

Mazkur inshoot transport oqimini samarali tashkil etish, yo'l harakati xavfsizligini oshirish, tirbandliklarni kamaytirish hamda Toshkent shahri bilan Nurafshon o'rtasidagi qatnov vaqtini 10 – 15 daqiqaga qisqartirishga xizmat qiladi.

Bektemir va O'rta Chirchiq tumanlari tutashgan hududda 14,1 gektar maydonda barpo etilgan loyihaning qiymati 240 milliard so'mni tashkil etdi. Obyekt tarkibida uzunligi 66 metr, kengligi 46 metr bo'lgan ko'prikl, 450 metrlik yer osti avtomobil yo'li, ikkita ortga qayrilish yo'lagi, to'rtta yer osti piyodalar o'tish yo'lagi va 950 metrlik aylana halqa yo'li qurildi. Shuningdek, 9,5 kilometr piyoda va veloyo'laklar, sakkizta jamoat transporti bekati, 240 ta tashqi yoritish chirog'i hamda 6 kilometr yo'l to'siqlari barpo etildi.

Yangi obyektning ishga tushirilishi natijasida yo'nalishning kunlik o'tkazuvchanlik quvvati bir necha barobarga oshib, 130 mingta avtotransport vositasiga yetadi. Bu esa poytaxt va Toshkent viloyati o'rtasidagi transport aloqalarini yanada yaxshilash, tirbandliklarni bartaraf etish hamda aholi uchun qulay harakatlanish sharoitini yaratishga xizmat qiladi.

Prezidentimizga loyihaning texnik yechimlari, transport oqimini boshqarish imkoniyatlari hamda kelgusida Toshkent – Nurafshon yo'nalishida tezyurar avtobuslar tizimini (BRT) yo'lga qo'yish bo'yicha rejalar haqida ham axborot berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'rta Chirchiq tumanidagi Qorasuv kanali bo'yida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

Yig'ilish

MUAMMOLAR YECHIMIDA DEPUTATLAR ROLI QANDAY?



Oliy Majlis Senatida mahalliy Kengashlar deputatlari ishtirokida mahallalarda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, deputatlar va “mahalla yettilligi” o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda shu yil 16 iyul kuni Prezident raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan hayotga tatbiq qilinayotgan ishlar muhokama etildi.

Keyingi yillarda mahalla institutini rivojlantirish, aholi muammolarini joyida hal etish va davlat xizmatlarini fuqarolarga yanada yaqinlashtirish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, aholi murojaatlari bilan ishlash, “Tashabbusli byudjet” loyihalarini, bandlik, tadbirkorlik va ijtimoiy himoya sohalaridagi vazifalar ijrosini ta'minlashda

deputatlik nazoratini kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida mahalliy Kengashlar vakolatlari kengaygani, shu bilan birga, deputatlar zimmasidagi mas'uliyat ham oshgani ta'kidlandi. Ular faoliyati, avvalo, aholi muammolarining hal qilinishi, davlat dasturlari ijrosi hamda islohotlarning amaliy natijalari bilan baholanishi lozimligiga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Senat Kengashining mahalliy Kengash deputatlari va “mahalla yettilligi” hamkorligini takomillashtirishga oid qarori ijrosi tahlil qilinib, monitoring natijalari muhokamaga tortildi. Buxoro, Namangan va Farg'ona viloyatlari Kengashlari raislarining hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborotlari eshitildi.

Muhokama yakunida deputatlarning “mahalla yettilligi” bilan hamkorligini mustahkamlash, davlat dasturlari ijrosi ustidan deputatlik nazoratini kuchaytirish, aholining “Tashabbusli byudjet”dagi ishtirokini kengaytirish, bandlik va ijtimoiy himoya sohalaridagi ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi.

Mahalliy Kengashlar faoliyatining ochiqchiligi va shaffofligini ta'minlash, ularning faoliyatini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish muhimligi ham ta'kidlandi.

«Xalq so'zi».

Aks sado

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti keskin o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Global bozorlardagi beqarorlik, geosiyosiy jarayonlar, texnologik inqilob va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi mamlakatlar oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda.

IQTISODIY YUKSALISHNING YANGI FALSAFASI

Endi davlatlarning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar yoki moliyaviy imkoniyatlar bilan emas, balki inson kapitali sifatida, ilmiy salohiyat, innovatsion fikrlash va zamonaviy boshqaruv samaradorligi bilan belgilanmoqda.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni kompleks rivojlantirish, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash hamda davlat boshqaruvini natijaga yo'naltirilgan tizimga o'tkazish borasida mutlaqo yangi yondashuvlar shakllantirilmoqda. Eng muhimi, bu islohotlar iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish bilan cheklanib qolmasdan, inson manfaati va aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz joriy yilning birinchi yarmi yakunlari hamda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida amalga oshirilgan ishlar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ana shu islohotlarning navbatdagi muhim bosqichini belgilab berdi. Unda nafaqat erishilgan natijalar sarhisob qilindi, balki oldimizga kelgusi davr uchun ustuvor yo'nalishlar va mutlaqo yangi vazifalar qo'yildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari iqtisodiy o'sishga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surib, har bir rahbar faoliyatini raqamlar bilan emas, balki hududlardagi haqiqiy o'zgarishlar, yangi ish o'rinlari, aholi daromadlari va inson hayotidagi ijobiy natijalar bilan baholash zarurligini alohida ta'kidladi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON QADRI VA XALQIMIZ FAROVONLIGINING MUSTAHKAM ASOSI



huquqiy axborotni proaktiv shaklda va manzilli yetkazish ishlari samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Kun tartibidagi ushbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas'ul qo'mitalar, ishchi guruh yig'ilishlarida ekspertlar, tegishli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari ishtirokida atroflicha muhokama qilingani qayd etildi.

Kiberjinoyatga qarshi kurashish choralari kuchaytiriladi

Dastlab, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohasiga chuqur kirib borayotgan bir paytda kiberjinoyatlar ham yangi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Onlayn firibgarlik, bank kartalaridan mablag'larni talon-toraj qilish, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqatilishi, soxta raqamli kontent (deepfake), moliyaviy piramidalar kabi huquqbuzarliklar fuqarolarning mol-mulki, shaxsiy

ma'lumotlari va axborot xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

So'nggi yillarda kiberjinoyatlar sonining ortishi mazkur sohada yagona va samarali huquqiy mexanizmi shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirdi.

Qonun loyihasisga muvofiq, Ichki ishlar vazirligi ushbu sohadagi vakolatli davlat organi sifatida belgilanib, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini muvofiqlashtirish, profilaktika ishlarini tashkil etish, huquqbuzarliklarni fosh qilish hamda mas'ul idoralar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash bo'yicha huquqlarga ega bo'ladi.



INSON QADRI VA XALQIMIZ FAROVONLIGINING MUSTAHKAM ASOSI



Muhokamada kiberjinoatlardan jabrlangan shaxslar himoyasi masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Qonun loyihasida ularni reabilitatsiya qilish, huquqiy, psixologik va zaruratga ko'ra tibbiy yordam ko'rsatish, buzilgan huquqlarini tiklash hamda raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, moliyaviy piramida ko'rinishidagi firibgarliklarni barvaqt aniqlash, ular tarqalishining oldini olish, aholini kibertahdidlar haqida tezkor ogohlantirish, shuningdek, jamiyatda kibermadaniyat va kiberigiyyena ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizmlar mustahkamlanmoqda.

Javlon ABDULLAYEV,
Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlanish jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar asosida yanada takomillashtirildi. Xususan, asosiy tushunchalar amaldagi qonunchilik bilan muvofiqlashtirildi, huquqiy noaniqlikka sabab bo'lishi mumkin deya hisoblangan normalar qayta tahrirlandi, davlat organlarining vakolatlari, o'zaro hamkorligi va mas'uliyatini belgilaydigan qoidalar aniqlashtirildi. Aytish mumkinki, mazkur qonunning qabul qilinishi kiberjinoatlarga qarshi kurashishning zamonaviy va samarali huquqiy tizimini shakllantirish, shaxs, jamiyat va davlatning kibermakondagi huquq hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyalash, shuningdek, fuqarolarning raqamli xizmatlardan xavfsiz foydalanishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Shaxsiy ma'lumotlar va mol-mulk ishonchli himoya qilinadi

Kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda raqamli muhitda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat va masofaviy moliyaviy xizmatlar jadal rivojlanayotgani fuqarolarning bank hisobvaraqlari, elektron hamyonlari va boshqa raqamli aktivlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni yanada mustahkamlashni talab etmoqda. Ayniqsa, kiberjinoatlarning yangi ko'rinishlari paydo bo'layotgani sohadagi qonunchilikni zamonaviy xavf-xatarlarga mos ravishda takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlanish jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar asosida uning qator normalari qayta ko'rib chiqildi va huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirildi.

Jumladan, "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunga kiritilayotgan o'zgartirishlarga muvofiq, kiberxavfsizlik talablariغا rioya etilmagani yoki shubhali (frod) operatsiyalarning oldini olish choralari ko'rilganligi oqibatida fuqarolarga moddali zarar yetkazilsa, mazkur zararni banklar, to'lov tizimi operatorlari yoki to'lov tashkilotlari tomonidan qoplash tartibi belgilanmoqda. Bu moliyaviy xizmatlar bozori ishtirokchilarining axborot xavfsizligi sohasidagi mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirishlar esa raqamli dalillar bilan ishlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan. Unga ko'ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsiga axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar doirasida ish uchun ahamiyatli bo'lgan elektron ma'lumotlar, hujjatlar va boshqa ashyoviy dalillar qayerda ekanini aniqlash bo'lgan hollarda ularni belgilangan tartibda olib qo'yish imkoniyati berilmoqda.

Zuhra MIRG'OZIYEVA,
Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Yana bir muhim yangilik sifatida bank hisobvaraqlari, elektron hamyonlar va kriptoaktivlar bo'yicha operatsiyalarni vaqtincha to'xtatib turish protsessual majburlor chorasi sifatida joriy etilmoqda.

Bu noqonuniy o'zlashtirilgan mablag'lar boshqa shaxslarga o'tkazib yuborilishining oldini olishga xizmat qiladi. Ayni paytda mazkur tartib Konstitutsiyada kafolatlangan mulkiy huquqlarni ta'minlash maqsadida sud nazorati mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilmoqda.

Muhokama chog'ida mazkur hujjat kiberjinoatlarning oldini olish, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari va mol-mulkini ishonchli himoyalash, to'lov infratuzilmasining barqarorligini ta'minlash hamda raqamli makonda huquqiy xavfsizlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborildi.

O'rmon fondi yerlari alohida muhofaza etiladi

Kun tartibidagi navbatdagi masala – "O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga o'rmon fondi yerlari muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda ekologik muammolarning oldini olish va ularni hal etish, ekologik tizimlarni rivojlantirish, tabiat obyektlarini muhofaza qilish, o'rmon bilan qoplangan yerlarni ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi ham o'rmon fondi yerlarining muhofazasini ta'minlash bilan bog'liq talablarni O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksida aniqlashga qaratilgan.

Jumladan, qonun loyihasi bilan Yer kodeksiga o'rmon fondi yerlarining alohida muhofazasini ta'minlash ko'zda tutilgan muhim normalar kiritilmoqda. Ya'ni loyiha bilan o'rmon fondi yerlari alohida muhofazaga olinishi belgilanib, o'rmon fondi yerlarini yer fondining boshqa toifasiga o'tkazish faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida amalga oshirilishi mustahkamlanmoqda.

Amalda o'rmon fondi yerlarini yer fondining boshqa toifasiga o'tkazish Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq bajarilar edi.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida huquqni qo'llash amaliyoti nuqtai nazaridan takomiliga yetkazilgani qayd etildi.

Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi o'rmon fondi yerlarini alohida muhofazaga olish, ularni ko'paytirish hamda ekologik tizimlar barqarorligini ta'minlashga keng yo'l ochadi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berish muddati uzaytiriladi

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni tizimlashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Unda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga berish muddatini amaldagi o'ttiz yildan qirq to'qqiz yilga uzaytirish taklif etilmoqda. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini ijaraga berishning eng ko'p muddati esa qirq to'qqiz yil qilib belgilanmoqda. Shuningdek, chet el fuqarolari va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qishloq xo'jaligi yerlaridan ikkilamchi ijara huquqi asosida foydalanish tartibi belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida uning normalari mas'ul qo'mita va deputatlar, tegishli vazirlik va idoralar mutaxassislari ishtirokida batafsil muhokama qilinib, huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqqan holda takomillashtirilgani qayd etildi.

Ravshan MAMUTOV,
Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi:

– Qonun loyihasida xalqaro amaliyotdan kelib chiqib qonunchilikdagi chet el fuqarolariga yer ajratish bilan bog'liq tarqoq normalarni tizimlashtirishga, mudofaaga mo'ljallangan, chegara, tarixiy-madaniy yerlar va o'rmon fondi yerlari chet elliklarga berilmasligiga qaratilgan normalar o'z aksini topmoqda. Shuningdek, noqishloq yerlar ijarasiga oid qoidalar soddalashtirilib,

yerlarni auksion orqali ijaraga olishga va ushbu yerni qayta ijaraga chiqarishga ruxsat berilmoqda. Bundan tashqari, yakka tartibdagi uy-joylar joylashgan yer uchastkasi ijara huquqi asosida berilishi mustahkamlab qo'yilmoqda. Mazkur hujjatning qabul qilinishi yer munosabatlarida huquqiy aniqlikni ta'minlashga va davlat nazoratini mustahkamlashga, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga hamda yer resurslaridan samarali foydalanishga hissa qo'shadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Migratsiya sohasidagi qonunchilik takomillashtirilmoqda

Majlisda deputatlar tomonidan "Migratsiya sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish nuqtai nazaridan chet el fuqarolarining O'zbekistonga kelishi va bu yerda turishi bilan bog'liq tartib-taomillarni soddalashtirish hamda yengillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, bugungi kunda 80 dan ortiq davlatlarning fuqarolari uchun vizasiz kirish tizimi joriy etilgan, elektron vizalarni berish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Natijada joriy yilning besh oyida yurtimizga xorijiy turistlar oqimi 27 foizga o'sib, 5,5 mln. nafarga yetdi.

O'z navbatida, amaldagi qonunchilik bo'yicha chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehmonxonalar, motellar, turistik lagerlar, dam olish uylari va zonalar, sanatoriylar, davolash pansionatlari, davlat tasarrufidagi va xususiy kinolalar, shifoxonalarga kelganda ushbu tashkilot va muassasalar tomonidan ularni kelgan vaqtning o'zida ro'yxatga olish tartibi joriy qilingan.

Afsuski, ba'zi tashkilot va muassasalar tomonidan respublikamizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni belgilangan tartibda turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazmaslik holatlari uchramoqda. Shu munosabat bilan mazkur tashkilot va muassasalar tomonidan ushbu majburiyatlarni bajarmaslik va shaxslarni "E-mehmon" axborot tizimiga kiritmaslik holatlari bo'yicha ularning javobgarligini oshirishga qaratilgan normalar qonun loyihasida taklif etilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasi bilan amaldagi qonun hujjatlari 2025 yil 10 iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida"gi Qonun normalariga muvofiq lashtirilyapti. Xususan, fuqarolarning yashash joyi va turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq atama va tushunchalar, huquqiy mexanizmlar barcha qonun hujjatlarida birxillashtirilmoqda. Ya'ni amaldagi bir qator kodeks va qonunlardagi "doimiy yashash joyi" yoki "vaqtinchalik yashash joyi" tushunchalari tegishincha "yashash joyi" va "turgan joyi" tushunchalari bilan almashtirilmoqda.

Deputatlar qonun loyihasining mazmun-mohiyati, uning amaliyotga ta'siri hamda huquqiy mexanizmlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirdi. Ayrim normalarni yanada aniqlashtirish va huquqni qo'llash amaliyoti nuqtai nazaridan takomillashtirish bo'yicha takliflar ham ilgari surildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Iqtisodiy xavfsizlik mustahkamlanadi

Bojxona sohasida huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish, javobgarlikning muqarrarlignini ta'minlash hamda jinoyat ishlarini tezkor va samarali ko'rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokamaga tortildi. Hujjat mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini va xalqimiz farovonligini mustahkamlashga qaratilgan.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va qulay ishlabirmonlik muhitini yaratish bo'yicha

islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bunda bojxona to'lovlari Davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri sifatida davlatning iqtisodiy xavfsizligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois qonunchilikda belgilangan bojxona to'lovlari to'lash tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining majburiyati hisoblanadi.

Saydullo AZIMOV,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:
– Amaliyotda bojxona to'lovlari to'lamaslik holatlari tez-tez kuzatilayotgani bojxona bojlarini to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Qonun loyihasi bilan katta miqdorda yoki bir necha marotaba bojxona bojlarini to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik kuchaytirilib, Jinoyat kodeksiga tegishli o'zgartirish kiritish taklif etilmoqda.

Aytish joiz, ilgari surilayotgan normalar bir tomondan, bojxona to'lovlari to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining oldini olishga, ikkinchi tomondan esa jinoyat

protsessual qonunchilikni zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Huquqiy axborotni manzilli yetkazish tizimi yaratiladi

Majlisda "Huquqiy axborotni proaktiv shaklda yetkazish tizimi joriy etilishi munosabati bilan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

U aholiga huquqiy axborotni zamonaviy texnologiyalar orqali tezkor, manzilli va qulay tarzda yetkazish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Muhokama chog'ida aytilganidek, bugungi kunda qonunlarning qabul qilinishi haqida har bir fuqaroni o'z vaqtida xabardor etish, ularning mazmun-mohiyatini sodda va tushunarli tarzda yetkazish dolzarb ahamiyatga ega. Shu bois huquqiy targ'ibotning an'anaviy usullari bilan bir qatorda, raqamli platformalar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt asosidagi interfaol tizimlardan keng foydalanish taklif qilinmoqda.

Loyihaga muvofiq, davlat organlari endi o'z faoliyati sohasiga daxldor normativ-huquqiy hujjatlarni nafaqat ishlab chiqishi yoki e'lon qilishi, balki ularning mazmun-mohiyatini aholiga tushuntirish ishlarini tashkil etish uchun ham bevosita mas'ul bo'ladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari ham o'zlari imzolagan qarorlarni aholiga yetkazish va tushuntirish vazifasini amalga oshiradi.

Shahnoza XOLMAHAMATOVA,
Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi a'zosi:



– Mazkur qonun loyihasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, huquqiy axborotni aholiga yetkazish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib

chiqadi. Eng muhimi, huquqiy axborot har bir fuqaroga uning ehtiyoji va hayotiy vaziyatidan kelib chiqqan holda manzilli tarzda yetkazilishi ta'minlanadi. Bu esa aholining qonunchilikdagi yangiliklardan o'z vaqtida xabardor bo'lishi, o'z huquq va majburiyatlarini yanada yaxshi anglashi uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, ushbu hujjat aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Davlat organlarining ochiqqligi va jamoatchilik oldidagi mas'uliyatini yanada oshirish, ularning fuqarolar bilan samarali muloqotini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, huquqiy targ'ibot ishlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali huquqiy axborotni tezkor, qulay va tushunarli shaklda yetkazish imkoniyatlari kengayadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

Munosabat

AHOLI ROZILIGI – IJTIMOY SIYOSATNING BOSH MEZONI

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi farovonligini yuksaltirish va ijtimoiy masalalarni bevosita mahallabay hal etishga qaratilgan xalqchil siyosat yuksak samaralar bermiqda. Bu, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning turmush sharoitini yaxshilash bo'yicha erishilayotgan yutuqlarda yorqin namoyon bo'lyapti.



2026 yilning birinchi yarmi yakunlari va yil oxirigacha bo'lgan vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda ushbu yo'nalish, ya'ni ijtimoiy sohada ilgari

surilgan tashabbuslar, belgilangan vazifalar xalqimiz, partiyamiz elektorati manfaatlariga hamohangdir.

Yil boshidan buyon mamlakat iqtisodiyoti 8,5 foizga o'sgani yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning to'g'ri va samarali ketayotganidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich aholi farovonligi, yangi ish o'rinlari va ijtimoiy barqarorlikning asosiy garovi bo'lmoqda.

Shu bilan birga, majlisda qariyb 40 millionlik aholi turmush farovonligini ta'minlash uchun 9-10 foizlik barqaror iqtisodiy o'sish zarurligi ta'kidlandi. Har yili mehnat bozoriga yuz minglab yoshlar kirib kelayotgani va aholi soni tabiiy ko'payib borayotgani sababli yuqori o'sish sur'atlari talab etiladi. Bu yangi va munosib haq to'lanadigan ish o'rinlarini yaratish, aholining real daromadlarini oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liq natijalarga bevosita ta'sir qiladi.

Global iqtisodiy beqarorlik sharoitida hududlarga tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash uchun qo'shimcha mablag'lar ajratilayotgani, mahallalarda ish o'rinlarini ko'paytirishga berilayotgan e'tibor dasturiy maqsadlarimizdagi kuchli ijtimoiy siyosatni adolat tamoyillariga to'la mos. Shu bois faoliyatimiz davomida qator ustuvor yo'nalishlarga alohida ahamiyat qaratiladi.

Iqtisodiy o'sish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish natijasida yaratilayotgan daromad manbai kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga yetib borishi muhimdir.

Byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning mahallalarda, olis hududlardagi ijtimoiy infratuzilma (sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmatlar) loyihalariga maqsadli va samarali sarflanishi ustidan qat'iy deputatlik hamda jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi.

Bu o'rinda infratuzilmani yaxshilash masalasiga bejiz urg'u berilmayapti. Sababi, u har qanday taraqqiyotga asos bo'ladi. Qaysi mahallada infratuzilma yaxshi bo'lsa, o'sha hudud aholisi islohotlardan rozi, hayot sifati yuqori va turmushi farovon ekaniga ochiq muloqot uchrashuvlarda amin bo'lyapmiz.

Endi bandlik tizimi mas'ullari ehtiyojmand aholini o'qitish, ishga joylashtirish va daromadini oshirish maqsadida hududma-hudud yuradi. O'ZDPning asosiy elektorati bo'lgan ehtiyojmand aholi qatlamini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mazkur tashabbus alohida ahamiyat kasb etadi. Hududlarda ushbu tashabbus ijrosini o'rganib, doimiy tahildan o'tkazib borishni o'zimizga vazifa qilib oldik.

Bundan tashqari, har bir hududda hokimliklarning yarim yillik ko'rsatkichlari, ayniqsa, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy muammolarni hal etish borasidagi ishlarini mahalliy Kengashlar sessiyalarida tanqidiy tahlil qilish, ijro organlari rahbarlariga deputatlik so'rovlari yuzanish orqali ularning mas'uliyatini kuchaytirish muhim.

Mahalliy Kengashlardagi deputatlarimiz banklarning mahallalarda aholiga ajratayotgan imtiyozli kreditlari va bandlik loyihalari, haqiqatan ham, kam daromadli hamda ehtiyojmand oilalarga yetib borishini nazoratga oladi.

Partiyamiz, uning quyi tashkilotlari, deputatlarimiz joylarda qo'sht, sut va asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlari asossiz oshib ketmasligini, chorvachilik va qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha berilgan vazifalarning ijrosini bevosita mahallalarda o'rganadi.

Har bir iqtisodiy islohot hamda o'sish sur'ati, eng avvalo, oddiy insonning qadri, uning oilasi va mahallasidagi farovonlik bilan o'chanadi. Dunyodagi murakkab, beqaror sharoitda xalqimizning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, har bir fuqaroga munosib ish va daromad manbai yaratish davlat oldidagi eng muhim strategik vazifadir.

Ulug'bek INOYATOV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'ZXP fraksiyasi rahbari.

Tibbiy xizmatda yana bir qulaylik

Andijon tumanining Mustaqillik mahallasida 1-oilaviy poliklinika foydalanishga topshirildi. Zamonaviy me'moriy yechimlar asosida barpo qilingan tibbiyot muassasasi 13 ming nafardan ziyod aholiga xizmat ko'rsatadi. E'tiborlisi, ushbu poliklinika "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida mahalla aholining faol ishtiroki bilan bunyod etildi.



– Yangi poliklinika mahallamiz uchun katta tuhfa bo'ldi, – deydi mehnat faxriysi Sanobarxon Abdurazzoqova. – Ilgari davolanish uchun ancha uzoqqa borishga to'g'ri kelardi. Endi esa zamonaviy sharoitlarda, yashash joyimizga yaqin hududda malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Ochilish marosimida mahalla nuroniylari, faollar, tuman tibbiyot birlashmasi rahbariyati, shifokorlar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Ta'kidlanganidek, 1-oilaviy poliklinikadagi qabul va davolash xonalari, diagnostik imkoniyatlar, zamonaviy tibbiy uskunalar hamda bemorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega.

Saminjon HUSANOV
(«Xalq so'zi»).

«Yangi O'zbekiston» qiyofasidagi mahalla

Karmana tumanidagi Narpay mahallasi Navoiy shahriga tutashib ketgan. Bugungi kunda ushbu maskanda aholi turmush sharoitini yaxshilash, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini takomillashtirish maqsadida keng ko'lami buniyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Mahalla hududidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mukammal ta'mirlashdan chiqdi va uning qamrovi kengaytirildi. Sport majmuasida esa 11 ta sport turi bilan shug'ullanish imkoniyati yaratildi.

Yana bir ijtimoiy soha obyekti – 8-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tgan yili 300 o'rinni zamonaviy qo'shimcha o'quv binosi barpo etilgandi. Bugun esa ta'lim muassasasining barcha binolarida rekonstruksiya ishlari bajarilib, jihozlanmoqda.

– Mahallamizdagi Istiqlol ko'chasida kapital ta'mirlash ishlari jadal olib borilmoqda, – deydi "Narpay" MFY raisi Hasan Eshmurodov. – Loyiha doirasida yo'l qoplamasi yangilanib, piyodalar yo'laklari barpo etiladi. Tashqi tungi yoritish tizimi o'rnatilib, hudud obodonlashtirishi natijasida mahallamiz yanada fayzli maskanga aylandi.

Bundan tashqari, tadbirkorlar tomonidan qator servis va xizmat ko'rsatish nuqtalari faoliyati yo'lga qo'yilib, yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi bandligi ta'minlanmoqda.

Temur ESHBOYEV
(«Xalq so'zi»).

Shifobaxsh va serdaromad

Malina mazali ne'mat, servitamin, shifobaxsh rezavor sifatida qadrlanadi. Uning baravj o'sishi, mo'l hosil berishi uchun unumdor, suvni yaxshi o'tkazuvchi qumoq yerlar zarur.



Shahrisabz tumanining Miroqi, Uloch, Polmon, Qani mahallalari bu borada qulay sharoitga ega.

– Yetti sotix joyda malina yetishtiramiz, – deydi Qani mahallasida yashovchi No'mon Xudoyqulov. – Har yili may oyidan hosil terishni boshlasak, yig'im sentabr oyiga qadar davom etadi. Bu vaqt mobaynida har kuni 5 kilogrammdan 40 kilogrammgacha meva terib, bozorga chiqaramiz. Yillik daromadimiz o'tacha 50 – 60 mln. so'mni tashkil qiladi. Endi malina maydonini yanada kengaytirish harakatidamiz.

E'tiborlisi, tajribali dehqonlarning malinachilikda erishayotgan yutuqlari boshqalarni ham shunga undamoqda. Ayni paytda Qani va unga yondosh qishloqlardagi 300 dan ziyod oilalar malina yetishtirishni yo'lga qo'ygani e'tiborga molik.

Jahongir BOYMURODOV
(«Xalq so'zi»).

TARAQQIYOTNING INTELEKTUAL USTUNI

Bundan o'ttiz besh yil muqaddam xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash, milliy taraqqiyot yo'lini mustaqil tanlashdek ulkan tarixiy imkoniyatga ega bo'ldi. Mustaqillik nafaqat davlatchilikning ququqiy asoslarini mustahkamladi, balki ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyotga yangi nafas, kuch-quvvat bag'ishladi.

Nuqtai nazar

Ayniqsa, keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar mamlakat taraqqiyotining mutlaqo yangi davrini boshlab berdi, desak, ayni haqiqat.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mamlakatning haqiqiy boyligi uning tabiiy resurslari emas, balki bilimlil, tashabbuskor va raqobatbardosh insonlaridir. Shu bois oliy ta'lim tizimiga munosabat ham tubdan o'zgardi. Endi universitetlar innovatsiyalar yaratiladigan, ilmiy g'oyalar iqtisodiyotga xizmat qiladigan, mamlakat kelajagi shakllanadigan intellektual markazlar sifatida rivojlanmoqda.

Mazkur o'zgarishlarning amaliy natijasini Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Ta'kidlash joizki, to'qimachilik hamda yengil sanoat O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu sohaning kelajagi esa zamonaviy bilimiga ega muhandis, texnolog, dizayner hamda tadqiqotchilarga bog'liq. Shu maqsadda institutimizda keyingi yillarda ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. 11 ta yangi bakalavriat, 9 ta yangi magistratura hamda 9 ta tayanch doktorantura ixtisosliklari ochildi. Bugungi kunda



bu yerda 40 ta bakalavriat, 23 ta magistratura va 17 ta doktorantura yo'nalishida 9258 nafar talaba tahsil olmoqda.

Keltirilgan raqamlar zahirida bir maqsad mujassam – mamlakatimiz sanoati uchun zamon bilan hamnafas, xalqaro mehnat bozorida raqobatlasha oladigan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda institutning 17 ta kafedrasida to'liq modernizatsiya qilinib, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilgani qo'l keladi. Chunki bugun talabalar nafaqat nazariyani o'rganmoqda, balki ishlab chiqarishga yaqin muhitda amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lmoqda. Zero, ta'lim sifati amaliyot bilan uyg'unlikda mustahkamlanadi.

Isbot talab qilmaydigan haqiqat shuki, ilm-fan – iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi. Shu ma'noda, mustaqillikning eng katta yutuqlaridan biri ilm-fanga munosabatning tubdan o'zgarganidir. Pirovardida bugun institutlar ilmiy faoliyati reyting uchun emas, iqtisodiyot uchun

xizmat qilayotir.

Xususan, so'nggi yillarda institutimiz olimlarining xalqaro ma'lumotlar bazalarida chop etilgan maqolalari, iqtibos ko'rsatkichlari, patentlar va innovatsion ishlanmalari soni bir necha barobarga o'sdi. Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning g'oyalarini amaliy mahsulotga aylantirishga qaratilgan tizim shakllantirildi. Institut qoshida tashkil etilgan "TEXTILE MACHINERY" va "TEXTILELAB spin-off" korxonalari aynan shu maqsadga xizmat qilayapti. Bu yerda ilmiy g'oyalar ishlab chiqarish bilan uyg'unlashadi.

Sir emaski, bugungi davr

o'qituvchilarimiz xorijda malaka oshirmoqda, talabalarimiz akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etayotir. Qo'shma ta'lim dasturlari hamda ilmiy loyihalar soni yil sayin oshib boryapti. Bu harakatlar xalqaro reytinglarda ham o'z aksini topdi. Institut ilk bor "Times Higher Education Impact Rankings" reytingidagi joy oldi. "UI GreenMetric World University Rankings" xalqaro reytingida esa jahonning eng ekologik barqaror universitetlari qatoriga kirdi. Bu natijalar hyech shubha yo'qki, to'g'ri tanlangan taraqqiyot yo'limizning amaliy tasdig'idir.

Muhimi, Prezidentimiz

“Institutimiz dunyoning 31 mamlakatidagi universitetlar bilan mustahkam hamkorlik o'rnatgan. Professor-o'qituvchilarimiz xorijda malaka oshirmoqda, talabalarimiz akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etayotir. Qo'shma ta'lim dasturlari hamda ilmiy loyihalar soni yil sayin oshib boryapti. Bu harakatlar xalqaro reytinglarda ham o'z aksini topdi. Institut ilk bor “Times Higher Education Impact Rankings” reytingidagi joy oldi. “UI GreenMetric World University Rankings” xalqaro reytingida esa jahonning eng ekologik barqaror universitetlari qatoriga kirdi.

talablaridan biri – xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish. Bu taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Ya'ni globalashuv jarayonida hyech bir universitet xalqaro aloqa va tajribalarsiz rivojlanolmaydi.

Ayni paytda institutimiz dunyoning 31 mamlakatidagi universitetlar bilan mustahkam hamkorlik o'rnatgan. Professor-

islohotlari oliy ta'lim muassasalari taraqqiyotining asosiy omili bo'lyapti. Misol uchun, oliy o'quv yurtlari tarixida ilk bor akademik va moliyaviy mustaqillik berildi. Bu bizga qaror qabul qilishda tezkorlik, ta'lim dasturlarini bozor talablariga moslashtirish, xorijiy sheriklar bilan erkin hamkorlik qilish imkonini berdi. Natijada oliy ta'lim muassasalari rahbariyati va

Omilkorlik

TADBIRKORNING XARIDORGIR MEBELLARI

Sharof Rashidov tumanida istiqomat qiluvchi Shavkat Nurullayev hokim yordamchisining tavsiyasiga ko'ra, bankdan 100 mln. so'm imtiyozli kredit olgan va tadbirkorlikni boshlagan edi. Mana ikki yildirki, mebel sexida ish qizg'in.

– Dastlab xonadonimiz yonida sex uchun alohida bino qurib, kredit evaziga turli rusumdagi dastgohlarni o'rnatdik, – deydi Kuyovboshi mahallasidagi tadbirkor Sh. Nurullayev. – Ishni atigi ikki kishi ishlagan bo'lsak, ko'p o'tmay turmush o'rtog'im, farzandlarim safimizga qo'shildi. Hamjihatlikda gap ko'p ekan. Ishlab chiqarayotgan mebellarimiz

sifati va mustahkamligi bilan xaridorlarga manzur bo'lmoqda. Ayni paytda mebel sexida milliy va Yevropa uslubi uyg'unlashtirilgan holda oshxona, mehmonxona, yotoqxona mebellari, bolalar o'rindiqlari, eshik va derazalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun maxsus jihozlar tayyorlanmoqda.

Albatta, tadbirkor hyech qachon bir joyda to'xtab



turmaydi. Sh. Nurullayev ham yaqin kunlarda zamonaviy dastgoh olib kelishni niyat qilgan. Uning yordamida

tayyorlanadigan mebellar yanada serjilo bo'ladi. Tolibjon ERGASHEV
(«Xalq so'zi»).

QALBDA SADOQAT, TURMUSHDA MATONAT

Rashidjon mudhish avtohalokatga uchragan pallada tog'ni ursa, talqon qiladigan yoshda edi. Turmush o'rtog'i Hamrogul qo'lidagi besh oylik chaqalog'i bilan dam shifoxonaga yugurur, dam ro'zg'or yumushlarini saranjom-sarishta qilib, sut-qatiq sotgani bozorga chopardi.

Ibrat

Shifokorlar yigit hayotini saqlab qolishdi. Ammo u endi nogironligi borlar toifasida edi. Taqdiming bu zarbasi oldida har qanday kishi kalavaning uchini yo'qotib qo'yishi mumkin. Hamrogul yig'ildi-siqtdi, chaqalog'ini bag'riga bosib tunlarni bedor o'tkazdi. Sabrga suyandi – umid bilan yashadi. Orqavorotdan “Gulday umrini to'shakka mixlanib qolgan shu nogiron er bilan o'tkazadimi?” qabilidagi gap-so'zlarni eshitganida ko'nglidan ne o'yalar kechgani yolg'iz Yaratganga ayon.

– Shukr, hayotimdan aslo nolimayman, – deydi Romitan tumanidagi Qahramon qishlog'ida yashovchi Hamrogul Karomatova. – Bir umr turmush o'rtog'imning o'y-tashvishi, dardiga sherik yashadim. 41 yil davomida yonida turib, issiq-sovug'idan xabardor bo'ldim. Qahramonimiz dastlab fabrikada ishladi. Keyin maktabda faroshlik qildi. Fursat tug'ildi deguncha,

tomorgaga yugurdi. Halol mehnat ortidan og'ildagi bir bosh sigimi to'rt boshga yetkazdi. Sut-qatiq, qurut tayyorlab, bozorda soldi. Bir yonda salomatligidan ayrilib, yosh boladek javdirab turgan yostiqdoshini, bir yonda shirin-shakar qizalog'ini parvarish qilish – turmush qiyinchiliklari oldida yakka-yolg'iz qolgan ayol uchun oson bo'lgan emas. Ko'ngli yarim bo'lmasin deb, umr yo'ldoshini to'y-ma'rakalarga, umriga umr qo'shilsin, deya nogironlik aravachasida Romitandan chaması 600 kilometr oltisidagi Tovog'qoy sanatoriyisiga olib borganini aytmaslami?

– Rahmatli qaynonam hamda qaynotam – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Abdulhamid Karomatovning o'g'itlari, duolarini olib, kam bo'lmadim, – deya so'zida davom etadi Hamrogul opa. – Bu orada turmush o'rtog'imning salomatligi yomonlashib, bandalikni bajo keltirdi. Shukr, qizim Dilafuzning baxtini ko'rdi, nevaralarimning mehridan bahramand bo'ldi. Hozir 65 yoshdaman. Hayotdan chiqargan xulosam

shuki, sabrli, mehrlı bo'lmoq kerak.

Hamrogul opaning boshidan kechirganlarini eshitgan kishi borki, o'ylanib qoladi. Zero, u kabi sadoqatli, matonatli, sabr-qanoatli ayollar faqat kitoblardagina emas, shundoq yon-atrofimizda ham bor. Ularning hayoti oila – muqaddas, degan tushunchaning mag'zini chaqmay, ajralish ostonasida turgan ayrim yoshlar uchun saboq.

Yaqinda xuddi shunday bo'ldi. Oilaviy qadriyatlarini asrab-avaylash, xonadonlardagi muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha tayanch hudud sifatida tanlangan Romitandan ajralish yoqasida turgan oilalarni yashtirish masalasi bilan bog'liq uchrashuv o'tkazildi. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda sohaga tegishli tashkilotlar mas'ullari ishtirokida kechgan tadbirda Hamrogul opaning “Ajralish – bu muammoning yechimi emas” deya, o'z boshidan kechirganlarini so'zlab berishi barchani, jumladan, ajralaman, deb turgan yosh oila vakillarini ham hushyor torttirdi. Yakunda yettita xuddi shunday oila yashtirildi.

Istam IBROHIMOV
(«Xalq so'zi»).

2026/2027 o'quv yilidan boshlab bakalavriat ta'lim dasturini xorijiy tillarning birida (ta'lim tili xorijiy til bo'lgan holda) tamomlagan bitiruvchilar magistraturaga hujjat topshirishda xorijiy tilni bilish to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatni taqdim etishdan ozod etiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MFASSISLAK:
O'zbekiston Kysprblikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kiygashi
O'zbekiston Kysprblikasi Oliy Majlisi
Sinyati Kiygashi

Bosh mrahkqik O'tkik KAHMATOV

2020-yil 25-maktda O'zbekiston Kysprblikasi Pkzydynti Administkatsiyasi hrzrkedagi Axbokot va ommaviy kommfnikatsiyalak ag'yntligida 0001-kaqam bilan ko'yxatga olingan.Nashk, indykisi – 229. Btryk'tma G-742. 19 766 nrxxada bosildi. Hajmi – 2 taqboq. Ofiyt rsrtilda bosilgan.Qog'oz bichimi A-2. Bahosi k'yilishilgan narxqda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TYLYFONLAK:

Diyovnxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
y'lonlak 71-259-74-55.



Tahsijsiyatga k'ylgan qo'lyozmalak, taq'siz q'linmaydi va m'rallifga qayttal'maydi.
Gaz'ytaning y'ktak'iz by'k'ishli r'chn o'rnamani kasmiylashtilgan tashkilot javobqax.
Gaz'ytta tahsijsiyat kompyut'yx maxkazida t'y'shildi hamda op'y'k'otax A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gaz'ytaning poligrafik jihatdan sifati chop t'y'lishiga “Shaqx” nashriyot-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona t'y'f'loni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshk'ynt shahq'i,
Islom Kakimov ko'chasi, 55-ry.
Navbatchi m'rahk'qik A. Aliq'lov.
M'sahhih Sh. Mashk'abboy'v.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.55 Topshirildi – 00.15

1 2 3 4 5 6